



ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI
TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR TAHLILI

Abdalimova Shaxlo Azzamqul qizi

Termiz davlat universiteti

Rahimova Zebiniso Shomansur qizi

Ilmiy rahbar:

Termiz davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7700638>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan tarixiy va arxaik so‘zlardan misollar keltirilgan, so‘zlar tahlil qilingan va ma‘nolari izohlangan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot tili, tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar, eskirgan so‘zlar.

Ijodkorlar, yozuvchilar va shoirlarning asarlarini o‘rganish, xalq tili va adabiy til shakllari bilan tanishish imkonini beradi. Badiiy adabiyot adabiyotshunoslikka badiiylik jihatidan qanchalik zarur bo‘lsa, tilshunoslikka ham lingvistik jihatdan shunchalik muhim. Badiiy asar tilini leksik jihatdan tahlil qilish jarayonida tilning qanchalik muhim vosita ekanini his etamiz. Asarni tahlil qilish usullari, vositalari orqali yozuvchining mahoratini bilib olamiz. Badiiylik har bir san‘atning turlari uchun xosdir. Badiiy asardalarda hayot, jamiyat o‘z ko‘rinishida emas, balki shoir, yozuvchilarning badiiy tili va badiiy mahorati orqali ifodalanadi. Har qanday badiiy asarni tahlil qilishda yozuvchining mahorati u tasvirlagan hayot voqeliklari, inson ichki his-tuyg‘ularini, insonlarning holatlarini qay yo‘sinda inson ongiga ta‘sir qilganini badiiy til orqali tasvirlanganini bilishimiz mumkin. Tilshunosligimizda badiiy asar tilini o‘rganishda, asosan, lingvistik va lingvopoetik yo‘nalishlar ajralib turadi. Lingvistik yo‘nalishda tilning muayyan tarixiy davridagi leksik, fonetik va grammatik o‘zgarishlari tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli tomonlari o‘rganiladi. Badiiy asarni tahlil qilishda ma‘nodoshlik, zid ma‘nolilik, ko‘p ma‘nolilik, yangi so‘zlar, sifatlashlar, iboralar, eskirgan so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar tahlillari ajralib turadi. Badiiy asar tahlil qilishda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani obyekt sifatida tanlandi. Asarda qo‘llanilgan tarixiy va arxaik so‘zlar tanlab olindi, kitobxonlarga tushunrli bo‘lishi uchun tahlilga tortildi.

Tilimizning ma‘lum davrida qo‘llanib hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlarga eskirgan so‘zlar deyiladi. Eski so‘zlar ikki xil bo‘ladi. Tarixiy va arxaik so‘zlardir. Tarixiy so‘zlar - tarixning ma‘lum bir davriga oid bo‘lib (hozirgi kunda yo‘q), yaqin o‘tmishda ishlatilib kelingan, narsa-hodisalarning hozirgi zamonga kelib iste‘moldan butunlay chiqib ketishi sababli bugungi kunda bunday so‘zlar





notanish ma'no kasb etib qolgan, so'z ataydigan narsa-hodisalarning o'tmishga oidligi bilan beligilangan va so'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan eskirgan so'zlarga aytiladi.

Istorizm hisoblangan so'z ham, shu so'z ifodalagan narsa-hodisa ham hozirgi davrda qo'llanmaydi: cho'ri, kanizak, jallod, zindon, sovut, sodoq, paranji. Arxaik so'zlar esa hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning atamasi eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so'z bilan nomlanadi. Arxaik so'zlar o'z sinonimi bo'lgan zamonaviy so'zga nisbatan belgilanadi. Masalan: zavraq (kema), ulus (xalq), lang (cho'loq), firqa (partiya), tilmoch (tarjimon), budun (xalq), bitik (kitob), irn (lab), dudoq (lab), hamshira (singil), meng (xol), eng (yonoq), ilik (qo'l).

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham tarixiy va arxaik so'zlardan foydalanilgan. Asardagi ba'zi so'zlar tahlilini ko'rib o'tamiz.

Tarixiy so'zlarga misollar:

Arkoni davlat yig'ilib, Xudoyor taxtiga mingan, Musulmonqul xon bo'lmasa ham xonliqdan-da yuqori bir kuchka molik bo'lg'an siyosat kursisiga o'ltirgan edi.

Arkon - [a. "rukn" ning ko'pligi ya'ni ustunlar, asoslar] esk. Ulug' martaba egalari, katta amaldor, mansabdor, arbob.

Arkoni davlat - davlat arboblari, yuqori martaba egalari.

Azizbek bilan Yusufbek hojilarning aztahidil qarshiliqlari bizning kishilarni quruq qaytarishg'a majbur qilibdir.

Aztahidil - [f. butun qalbning, yurakning tubidan] esk. Astoydil.

Bek 1. Tarixiy. Turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arbooblariga, shahar va viloyat hokimlariga, ularning farzandlariga berilgan faxriy unvon, hamda shunday unvonga sazovar bo'lgan shaxs.

Beklar begi q. Bek oyim// begoyim. Bekning onasi yoki xotini va ularga murojaat shakli.

2. Erkaklar ismining tarkibiy qismi.mas., Otabek, Yusufbek.

3. (1- sh.egalik shaklida) O'z begi yoki xo'jayiniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatiladigan so'z.

Toshkandlik Yusufbek hojikim, Azizbegimizning gumashtasi bo'lg'an zoti sharifning o'g'illari?

Gumashta -[f.vakolatli shaxs; xizmatkor] 1. Tarixiy. 20- asr boshlariga qadar Turkistonda katta savdogar boylarning joylarida savdo olib boruvchi ishonli kishisi, vakili.





2. ko'chma Biror kimsani qo'llab-quvvatlash bilan muayyan amalga tayinlangan yoki birov tomonidan maxsus topshiriq bilan qo'yilgan shaxs Mingboshi bo'larliq odam qurib qoluvdimi, deyman.

Mingboshi - 1. tarixiy. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi, qo'shin boshlig'i.

2. tarixiy. Qo'shin boshlig'i.

- Musulmonqulning iti bo'lmasa, o'zimizdan Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz - ya'ni ma'naviy otam.

Otaliq. 1. Moddiy, madaniy yoki boshqa xil yordam ko'rsatish, shu yo'l bilan tashkilotlar va kishilarni bir-biriga bog'lashdan iborat ijtimoiy burch, faoliyat.

2. Shunday yordam ko'rsatishni o'z zimmasiga olgan kishi yoki tashkilot.

3. Otaliq "ota o'rniga ota" degan mazmunga ega bo'lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog'atga yetgunlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan.

- Yaxshi, qushbegi bizning yong'a kirgandan so'ng o'rda yigitlari ularga hozir bo'lsinlar!

Qushbegi- tarixiy. Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vaziriga teng bo'lgan amaldor; hokim

Xudaychi qulliq qilib chiqdi. Uning ketidan Musulmonqul tovshig'a muzaffariyat ohangi berib xong'a dedi:

- O'g'rilarining ikkisi qopqonga tushdi, xon!

Xudoychi - forscha, o'tmishda xon saroyida bo'ladigan marosimlarni boshqaruvchi kishi.

- Siz omon bo'lib osoyish o'ltirsangiz, qipchoqqa yo'l bermaymiz, taqsir!

Taqsir - [a. qisqartirish, kamaytirish; kamchilik; sustkashlik, beparvolik] Ulamolarga, boylarga, amoldorlarga hurmat yuzasidan aytilgan so'z.

Xon saylag'uchilar orasida yosh yigitlar bor bo'lg'anidek, katta sallalik mullanamolar, yetmish yoshliq keksalar ham ko'rinadirlar.

Xon - 1. tar Turkiy va mug'ul xalqlari hukmdorlari unvoni.

2. Tarixiy. Xonlik qilgan, xonlik lavozimidagi shaxs ismiga qo'shilib, unvon ifodalaydi.

3. Tarixiy. Erkak va ayollar ismlariga qo'shilib hurmat ma'nosini ifodalaydi. mas., Oqilxon, Karimaxon.

Arxaik so'zlarga misollar:

Bu ikki firqa bizning nazarimizda bir-birisidan mumtoz, idora ishida biri-biridan ortiqroq xalqlar emasdir.

Firqa - [a. guruh, to'da; partiya; jamoa;] esk 1. Maqsadi, g'oyasi dunyoqarashining mushtarakligi jihatdan birlashgan kishilar guruhi, guruh, to'da.





2. ayn partiya

Birodari aziz, siz manim bu soʻzlarimdin xafa boʻla koʻrmangiz, zeroki, faqiringiz bu soʻzlarni bir yoʻsin kelish vajhidin yozib oʻtdimiz.

Faqir - [a. kambagʻal, qashshoq, muhtoj] 1. Moddiy jihatdan kambagʻal, nochor, qashshoq, muhtoj.

2. esk. Birinchi shaxs oʻrnida yoki "men", "biz" olmoshlari bilan birlikda ishlatilib, soʻzlovchining kamtarlik qilayotganini ifodalaydi.

3. koʻchma. Nochor, bechora, chorasiz.

Toshkandning oʻzga koʻchalarini ham hisobga olgʻanda fajia bir adad tashkil etishi maʼlum.

Adad - [a.miqdor son] esk. 1. Son, miqdor. 2. Dona

Badiiy asarni tahlil qilish asarda yoritilgan mazmunga ham shakl va hajmga ham alohida eʼtibor qaratishni talab qiladi. Tahlil natijasida biz asardagi tarixiy va arxaik soʻzlarni hozirgi kundagi qay darajada faol yoki faol emasligini bilib olamiz.

Bu oʻz navbatida asar tilini yaxshi tushunib yetishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. –Toshkent. Sharq. 2004. 380 bet.

2. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent. 2007. 96 bet.

3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-jild. –Toshkent. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. 678 bet.

4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-jild. –Toshkent. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. 672 bet.

5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 3-jild. –Toshkent. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. 687 bet.

6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 4-jild. –Toshkent. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. 608 bet.

7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5-jild. –Toshkent. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. 592 bet.

8. Umurqulov B. AN ESSENTIAL FEATURE OF ARTISTIK DISCOURSE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 10. – S. 242-246.

9. Умуркулов, Б. "Бадий адабиётда суз." (1993).

10. Курбаназарова Н. Ш. ЛИСОНИЙ ТИЗИМДА ЭТНОГРАФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТИ (СУРХОНДАРЁ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ МИСОЛИДА) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 4.



11. Эргашева Д. А. ODIL YOQUBOV ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 1.
12. Rakhimova Z. S. ARGO AS A SOCIALLY LIMITED LEXICAL UNIT //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 146-150.

